



CIVIL LAW REGULATION OF THE RIGHT TO USE STATE PROPERTY

Shavkatbek Tursunkulovich Juraboyev

Associate Professor

Dean of the Faculty of Law at Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: state property, right of use, civil law regulation, lease agreement, electronic platforms, transparency, state participation, monitoring.

Abstract: This article examines the civil law regulation of the right to use state property, focusing on its legal nature, forms, and implementation mechanisms. The study analyzes the participation of the state as an equal subject in civil law relations, as well as the contractual and legal foundations for leasing and managing state-owned assets. Based on the provisions of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the Law “On State Property Management,” and Cabinet of Ministers Resolution No. 660, the article highlights the interaction between civil law and administrative control mechanisms. Particular attention is paid to the role of electronic platforms (“E-ijara,” “E-auksion,” “online-ijara.uz”) in ensuring transparency, competition, and effective monitoring of state property use. The article also considers international practices in state property management and emphasizes the importance of balancing economic efficiency with the preservation of the social functions of public assets.

Received: 28.03.26

Accepted: 29.03.26

Published: 30.03.26

DAVLAT MULKIDAN FOYDALANISH HUQUQINING FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Shavkatbek Tursunqulovich Jo‘raboyev

Namangan Davlat Universiteti Huquqshunoslik fakulteti dekani, dotsent

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: davlat mulki, foydalanish huquqi, fuqarolik-huquqiy tartibga solish, ijara shartnomasi, elektron platformalar, shaffoflik, davlat ishtiroki, monitoring.

Annotatsiy: Maqolada davlat mulkidan foydalanish huquqining fuqarolik-huquqiy mazmuni, shakllari va uni amalga oshirish mexanizmlari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda teng subyekt sifatida ishtirok etishi, davlat mulkini ijaraga berish, undan foydalanish va nazorat qilish masalalari Fuqarolik kodeksi hamda maxsus qonunlar asosida yoritilgan. Xususan, “Davlat mulkini boshqarish toʻgʻrisida”gi qonun va Vazirlar Mahkamasining 660-son qarori asosida davlat mulkidan foydalanishda shartnomaviy va maʼmuriy-huquqiy mexanizmlarning uygʻunlashuvi koʻrsatib berilgan. Maqolada elektron platformalar (“E-ijara”, “E-auksion”, “online-ijara.uz”) orqali davlat mulkini ijaraga berish, monitoring va tushumlarni nazorat qilishning huquqiy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, davlat mulkidan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik, shaffoflik, ijtimoiy funksiyalarni saqlash va manfaatlar muvozanatini taʼminlash masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan. Xalqaro tajriba misolida davlat mulkini boshqarishda raqamli va ochiq mexanizmlarning ustunliklari tahlil qilinadi.

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ПРАВА ПОЛЬЗОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ

Шавкатбек Турсункулович Жўрабоев

Наманган Давлат Университети Хуқуқшунослик факультети декани

Наманган, Ўзбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: государственная собственность, право пользования, гражданско-правовое регулирование, договор аренды, электронные платформы, прозрачность, участие государства, мониторинг.

Аннотация: В статье анализируется гражданско-правовое регулирование права пользования государственной собственностью, его содержание, формы и механизмы реализации. Рассматривается участие государства в гражданско-правовых отношениях в качестве равноправного субъекта, а также правовые основы передачи государственного имущества в аренду и контроля за его использованием. На основе положений Гражданского кодекса Республики

Узбекистан, закона «О управлении государственной собственностью» и постановления Кабинета Министров № 660 раскрывается сочетание договорных и административно-правовых механизмов в сфере использования государственного имущества. Особое внимание уделяется роли электронных платформ («E-ijara», «E-auksion», «online-ijara.uz») в обеспечении прозрачности, конкурентности и эффективности использования государственных активов. В статье также анализируется международный опыт управления государственной собственностью и обосновывается необходимость баланса между экономической эффективностью и сохранением социальной функции государственного имущества.

Davlat mulki bugungi kunda iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning asosiy resursi sifatida e'tiborga loyiqdir. U nafaqat davlat organlari va tashkilotlar faoliyatida, balki tadbirkorlik subyektlari va fuqarolar uchun ham iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, davlat mulkidan foydalanish huquqi fuqarolik-huquqiy va shartnomaviy normalar bilan aniq tartibga solinishi lozim. Fuqarolik kodeksining 79-moddasiga ko'ra davlatni fuqarolik-huquqiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilar bilan teng huquqli ishtirokini belgilaydi, shu bilan birga o'z majburiyatlari bo'yicha faqat o'z mulki bilan javob beradi.

Davlat mulkidan foydalanishning huquqiy asoslarini shakllantirish va tartibga solish jarayoni nafaqat Fuqarolik kodeksi bilan, balki maxsus qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar bilan ham belgilanadi. Shu jumladan, 2023-yil 9-martdagi "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi qonun davlat mulkini boshqarish, undan foydalanish va nazorat mexanizmlarini belgilaydi. Ushbu qonun mulkni ijaraga berish, shartnomalarni monitoring qilish va tushumlarni nazorat qilishni fuqarolik-huquqiy normalar bilan uyg'unlashtiradi.

Davlat mulkidan foydalanish huquqi fuqarolik-huquqiy kategoriyadir va davlat mulkini shaxslar va tashkilotlar foydasiga belgilangan me'yorlarda ishlatish imkoniyatini beradi. Bu huquq Fuqarolik kodeksi va maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi qonun mulkni ijaraga berish, ijarachilar va davlatning shartnomaviy majburiyatlarini tartibga soluvchi mexanizmlarni belgilaydi. Shuningdek, qonun davlat va yuridik shaxslar

javobgarligi farqlanishini aniq ko'rsatadi, davlatning o'z majburiyatlari bo'yicha faqat o'z mulki bilan javob berishi belgilangan (Fuqarolik kodeksi 80-modda).

Davlat mulkidan foydalanish huquqi iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni ta'minlash vositasi sifatida ham qaraladi. Davlat mulkini ijaraga berish, xususiylashtirish yoki boshqa shakllarda foydalanish orqali davlat o'z faoliyatini samarali boshqaradi, shuningdek, ijtimoiy sohada va iqtisodiy rivojlanishda barqarorlikni ta'minlaydi. Nazariy nuqtai nazardan, davlatning fuqarolik-huquqiy ishtiroki va shartnomaviy mexanizmlar birgalikda mulkni qonuniy va samarali ishlatishni kafolatlaydi.

Davlat mulkidan foydalanish ko'pincha shartnoma munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Shartnoma ikki tomonning huquq va majburiyatlarini belgilaydi va mulkni qonuniy ishlatishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, davlat ijaraga berish shartnomasida ijarachining mulkni belgilangan maqsadlarda ishlatishi, davlatning esa mulkni sifatli taqdim etishi kafolatlanadi (Fuqarolik kodeksi 79-modda).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 660-son qarori davlat mulkini ijara asosida berish tartibini, ijara shartnomalarini tuzish, tushumlarni nazorat qilish va balansda saqlovchining huquq va majburiyatlarini belgiladi. Shu bilan birga, "online-ijara.uz" axborot tizimi va "E-ijara" elektron tizimi orqali ijara shartnomalari monitoringi va tushumlar nazorati tashkil etilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori davlat mulkidan foydalanish tizimini samarali boshqarish, undan oqilona foydalanish va davlat manfaatlariga muvofiq ravishda iqtisodiy aylanishga jalb etishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat sifatida ahamiyatlidir. Qarorda ijara jarayonlarini elektron platformalar ("online-ijara.uz", "E-ijara", "E-auksion") orqali amalga oshirish talab etilgan bo'lib, bu davlat mulkidan foydalanishda ochiqlik, raqobat va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlaydi. Davlat mulkining bo'sh turgan obyektlarini iqtisodiy muomalaga jalb qilish orqali ulardan olinadigan daromadning oshishi, shu bilan birga ularning yaroqsiz holatga kelib qolishining oldini olish maqsadga muvofiq tarzda asoslangan.

Davlat mulkidan foydalanishda asosiy tamoyillardan biri – uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlar, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalaridagi inshootlarni tijorat maqsadlariga haddan tashqari jalb etmaslikdir. Qarorda ijtimoiy soha obyektlarini tekin foydalanish asosida joylashtirish mumkinligi belgilangan bo'lib, bu davlat mulkining ijtimoiy funksiyasini saqlab qolishga xizmat qiladi. Bu yondashuv fuqarolik huquqining umumiy tamoyillaridan bo'lgan manfaatlar muvozanati va adolat prinsipiga

mos keladi. Shu bilan birga, foydali mulklarni foydalanishdan chetga chiqarmaslik va ularni iqtisodiy aylanishga jalb qilish davlat aktivlaridan oqilona foydalanish tamoyilidir.

Qarorda davlat mulkidan foydalanish jarayonida balansda saqlovchi tashkilotlarning o'rnini alohida ko'rsatib o'tilgan. Ular mulkdan foydalanish bo'yicha asosiy mas'ul shaxslar sifatida belgilangan bo'lib, agar ijara berish oqibatida davlat tashkiloti faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish tahdidi aniqlansa, buni tegishli hujjat asosida asoslab rad etish huquqiga ega. Bu mexanizm davlat mulkidan foydalanishda funksional samaradorlik tamoyilini ta'minlaydi, ya'ni mulkdan foydalanish korxonada faoliyatini buzmasligi va davlat manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak. Shu nuqtai nazardan, balansda saqlovchi rolini kuchaytirish, biroq uning sub'yektiv qarorlarini cheklash uchun aniq mezonlar joriy etilishi muhim.

Davlat mulkidan foydalanish mexanizmlarini elektron platformalar orqali amalga oshirish raqobat muhiti yaratilishiga xizmat qiladi, chunki an'anaviy tanlash jarayonlarida uchraydigan cheklovlar bartaraf etiladi. Elektron tizimlar orqali obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiq e'lon qilinishi potentsial foydalanuvchilarga davlat mulkidan foydalanish imkoniyatlarini teng asoslarda taqdim etadi. Bu fuqarolik huquqi doirasida mulkdan foydalanishning erkinlik tamoyiliga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ijara berishning elektronlashtirilishi monitoringni yaxshilaydi, ijara majburiyatlari bajarilishini nazorat qilishni osonlashtiradi va davlatga tegishli aktivlardan olinadigan tushumlarni oshiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, qarorda ijara shartnomalari bo'yicha to'lovlarni undirish va ularning taqsimotini "E-ijara" tizimi orqali amalga oshirish belgilangan. Mazkur tartib davlat mulkidan foydalanishdan olingan daromadlarning manzilli va aniq taqsimlanishini ta'minlaydi, biroq amaliyotda u mablag'larni noto'g'ri yo'naltirish yoki kechiktirish xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, bu mablag'larning byudjet tizimiga integratsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, har bir obyektidan olinadigan daromadning monitoring tizimi joriy etilishi hamda moliyaviy nazorat mexanizmi kuchaytirilishi lozim. Aks holda, davlat mulkidan foydalanishdan kutilayotgan iqtisodiy foyda to'liq amalga oshirilmasligi mumkin.

Davlat mulkidan foydalanish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar sof fuqarolik-huquqiy bitimlar orqali shakllansa-da, u davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida ma'muriy nazorat elementlarini ham o'zida mujassam etadi. Shu sababli, mulkni ijara berishda qo'llaniladigan shartnomalar fuqarolik huquqidagi umumiy qoidalarga bo'ysunadi, biroq ayrim hollarda davlat manfaatlariga mos tarzda majburiy shartlar qo'yilishi mumkin. Bunda manfaatlar muvozanati ta'minlanishi kerak: davlat mulkidan oqilona, iqtisodiy jihatdan samarali va xavfsiz foydalanish, bir vaqtning o'zida davlatning strategik funksiyalarini saqlab qolish. Mazkur qaror ushbu

yondashuv asosida yaratilgan bo'lib, davlat aktivlarini boshqarishda fuqarolik-huquqiy va ma'muriy instrumentlarning uyg'unlashuvi kuzatiladi.

Qaror davlat mulkidan foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, uni iqtisodiy faol muomalaga qayta jalb qilish, foydalanuvchilarni ochiq elektron raqobatga yo'naltirish va shaffof nazoratni ta'minlash orqali davlat mulkini iqtisodiy resurs sifatida samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy yo'naltirilgan obyektlar himoyasi, balansda saqlovchi vakolatlarining normativ asoslar bilan belgilanishi va mulkdan foydalanishdagi davlat manfaatlarini ta'minlash mexanizmlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Kelgusida bu tizimni yanada mustahkamlash uchun iqtisodiy va huquqiy monitoring, davlat-xususiy sheriklik modellarini qo'llash, shuningdek ijara shartnomalarining tipik shakllarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotda davlat mulkini ijara orqali boshqarish mexanizmlari keng qo'llanadi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa davlatlarida davlat mulkini ijara berishda elektron auksionlar va shaffof monitoring tizimlari faol qo'llaniladi, bu esa fuqarolik-huquqiy barqarorlik va mulkdan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Shu tarzda, elektron tizimlar va monitoring mexanizmlari nafaqat O'zbekistonda, balki global amaliyotda ham samarali vosita hisoblanadi.

Masalan, OnBid (Koreya) va Bid4Assets (AQSH) kabi platformalar davlat/ommaviy mulklarni onlayn-auksionlar / ijara berish orqali bozorga chiqarish misolidir – bu global amaliyotda davlat aktivlarini samarali boshqarish va shaffofligini ta'minlaydigan mexanizmdir. Prozorro.Sale tajribasi – yaqinda o'rganilayotgan va hozir ham faol ishlayotgan tizim bo'lib, u davlat va munitsipal aktivlarni «ochiq-data + e-auksion + raqobat» printsipida boshqarishning real misolidir. U ijara berish va sotishning shaffof, mas'uliyatli va samarali yo'lini ko'rsatadi. Germaniya misoli davlat mulkini «internal rent» modeli asosida boshqarish orqali mulk samaradorligini oshirish va davlat tashkilotlari moslashuvchanligini ta'minlaydi – bu ham davlat mulkidan foydalanishning bir nazorat va boshqaruv mexanizmi hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 79-moddasiga binoan, davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilar bilan teng huquqlilikni saqlaydi. Shu bilan birga, 80-modda davlat va yuridik shaxslar javobgarligini farqlaydi. Davlat o'zining majburiyatlari bo'yicha faqat o'z mulki bilan javob beradi, davlat tuzgan yuridik shaxsning majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

Ijara asosida berilgan davlat mulki Davaktiv agentligi va Kadastr agentligi o'rtasida elektron axborot almashinuvi orqali davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Shu tartib ijara huquqlarini aniqlik bilan nazorat qilish, mulkdan foydalanishdagi huquqiy nizolarni oldini olish va shaffoflikni oshirish

imkonini beradi. Bundan tashqari, davlatning fuqarolik-huquqiy ishtiroki mulkni boshqarishdagi risklarni kamaytiradi va shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini nazorat qiladi.

Davlat mulkidan foydalanish huquqi fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadi, bu esa mulkni samarali va qonuniy ishlatishni ta'minlaydi. Shartnomaviy mexanizm davlat va foydalanuvchilar o'rtasida teng huquqlilikni kafolatlaydi va shaffof nazoratni ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlatning fuqarolik-huquqiy ishtiroki mulkni boshqarishda risklarni kamaytiradi va shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini nazorat qiladi.

Ilmiy nuqtai nazardan, davlat mulkidan foydalanishning fuqarolik-huquqiy va shartnomaviy tartibga solinishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish va huquqiy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasidir. Shu bois, amaliyotda elektron tizimlar va monitoring mexanizmlari joriy etilishi huquqiy amaliyotning samaradorligini oshiradi va davlat aktivlaridan foydalanishni optimallashtiradi.

Davlat mulkidan foydalanish huquqi fuqarolik-huquqiy va shartnomaviy tartibga solinadi. Davlat o'z majburiyatlari bo'yicha faqat o'z mulki bilan javob beradi va shartnomaviy mexanizm orqali mulkni samarali boshqaradi. Shu bilan birga, elektron tizimlar orqali ijara shartnomalarining monitoringi va tushumlarni nazorat qilish davlat va foydalanuvchilar o'rtasidagi huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi, shaffoflikni oshiradi va mulkdan foydalanishning samaradorligini ta'minlaydi.

Davlat mulkidan foydalanish huquqining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi, avvalo, davlatning fuqarolik muomalasida teng subyekt sifatida ishtirok etishi tamoyiliga asoslanadi. Shu bilan birga, davlat mulkidan foydalanish mexanizmlarida faqat shartnomaviy munosabatlar emas, balki ma'muriy nazorat elementlari ham mavjud bo'lib, ular davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Fuqarolik kodeksining 79 va 80-moddalari davlatning o'z majburiyatlari bo'yicha faqat o'z mulki bilan javob berishini belgilagan bo'lsa, maxsus qonunlar va hukumat qarorlari ushbu huquqiy imkoniyatni iqtisodiy faoliyatga integratsiya qilish uchun zarur mexanizmlarni yaratadi. Shu nuqtai nazardan, davlat mulkidan foydalanishda fuqarolik-huquqiy va ma'muriy-huquqiy mexanizmlarning uyg'unlashuvi tizimning huquqiy barqarorligini ta'minlaydi, shuningdek, mulkdan oqilona foydalanish, uni iqtisodiy muomalaga jalb etish hamda ijtimoiy funksiyalarni saqlab qolish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, davlat mulkini boshqarish va undan foydalanishda elektron platformalar, ochiq ma'lumotlar tizimi, monitoring hamda onlayn-auksion mexanizmlaridan foydalanish zamonaviy huquqiy yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday mexanizmlar nafaqat raqobat muhitini kuchaytiradi, balki davlat aktivlaridan foydalanishda shaffoflik,

samaradorlik va javobgarlikni oshiradi. O‘zbekiston qonunchiligida “E-ijara”, “E-auksion” kabi tizimlarning joriy etilishi fuqarolik-huquqiy talablar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, davlat mulkidan foydalanish huquqining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi bugungi kunda shunchaki shartnomaviy mexanizm emas, balki huquqiy, iqtisodiy va axborot texnologiyalariga asoslangan kompleks boshqaruv modeli sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига Шарҳ - 1-жилд.
<https://www.osce.org/files/f/documents/8/7/74875.pdf>
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida” qonuni.
//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.03.2023-y., 03/23/821/0132-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda
“Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 660-son qarori. //
Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.12.2023-y., 09/23/660/0938-son.
4. <https://www.bid4assets.com/>
5. https://prozorro.sale/en/about-us/?utm_source=chatgpt.com
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi
Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 07.02.2025
yildagi 67-son qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.02.2025-y., 09/25/67/0145-son.